

## SINFDAN TASHQARI TADBIRLAR VOSITASIDA O'QUVCHI YOSHLARDA VATANGA E'TIQOD TUYG'USINI O'STIRISH

Dilorom Nigmatovna Yo'ldosheva

Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, pedagogika  
fanlar nomzodi

Mahfuza Shavkat qizi Sulaymonova

Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7433633>

**Annotatsiya.** Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar( to'garaklar, tanlovlar, tadbirlar,savol-javob kechalari, ijodiy uchrashuvlar, mushoiralar, olimdiada va bilimlar bellashuvi...) turli xil faoliyat turlarining kombinatsiyasi bo'lib, bolaga keng ko'lamlı tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ona tili ta'limida o'quvchi-yoshlar ongiga milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini singdirishning asosiy usullaridan hisoblanadi.Zamonaviy pedagogik nazariyaga ko'ra, "sinfdan tashqari tarbiyaviy ish - bu o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqari vaqtida maktab o'quvchilari uchun turli xil faoliyat turlarini tashkil etish, bolaning shaxsini ijtimoiylashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash".

**Kalit so'zlar:** tadbirlar,tanlovlar, ona tili ta'limi, milliylik, yoshlar dunyoqarashi, rag'batlantirish.

## ПОВЫШЕНИЕ ЧУВСТВА ВЕРЫ В РОДИНУ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ВНЕКЛАССНЫЕ МЕРОПРИЯТИЯ

**Аннотация.** Образовательная деятельность во внеучебное время (клубы, конкурсы, мероприятия, вечера вопросов и ответов, творческие встречи, выставки, олимпиады познания и т. д.) представляют собой совокупность различных видов деятельности и оказывают широкомасштабное воспитательное воздействие на учащихся. ребенок. . Особенно в родном воспитании это один из основных методов воспитания в сознании учащихся и молодежи духа уважения к нашим национальным ценностям, организация деятельности, обеспечение необходимых условий для социализации личности ребенка».

**Ключевые слова:** мероприятия, конкурсы, обучение родному языку, национальность, мировоззрение молодежи, поощрение.

## IMPROVING A SENSE OF FAITH IN THE MOTHERLAND IN STUDENTS THROUGH OUTSIDE THE CLASSROOM EVENTS

**Abstract.** Educational activities outside the classroom (clubs, contests, events, question-and-answer evenings, creative meetings, exhibitions, academic and knowledge competitions...) are a combination of various types of activities and have a wide-ranging educational impact on the child. . Especially in mother tongue education, it is one of the main methods of instilling the spirit of respect for our national values into the minds of students and young people. organization of activities, provision of necessary conditions for socialization of the child's personality".

**Keywords:** events, contests, mother tongue education, nationality, youth outlook, encouragement.

Sinfdan tashqari ishlar — umumiyl o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar

o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sindf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtida uyuştiriladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning xilma-xilligi, bиринчи navbatda, bolaning individual qobiliyatlarini har doim ham sindfa hisobga olish mumkin bo'lмаган har tomonlama ochib berishga yordam beradi. Ikkinchidan, kichik yoshdagi o'quvchilarni turli xil sindf dan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish bolaning shaxsiy tajribasini, uning inson faoliyatining xilma-xilligi haqidagi bilimlarini boyitadi, bola zarur amaliy ko'nikma va malakalarni egallaydi. Uchinchidan, sindf dan tashqari turli xil tarbiyaviy ishlar bolalarning turli xil faoliyat turlariga qiziqishini, jamiyat tomonidan ma'qullangan samarali mehnatda faol ishtirok etish istagini rivojlantirishga yordam beradi. Bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning keyingi imkoniyatlari haqida to'xtalib, uni batafsilroq ta'kidlab o'tishga arziydi. Sinfdan tashqari ishlarning turli shakllarida bolalar nafaqat individual xususiyatlarini namoyon etadilar, balki jamoada yashashni, ya'ni bir-biri bilan hamkorlik qilishni, o'rtoqlariga g'amxo'rlik qilishni, o'zlarini boshqa odamning o'rniga qo'yishni o'rganadilar. Bundan tashqari, sindf dan tashqari faoliyatning har bir turi - ijodiy, kognitiv, sport, mehnat, o'yin - məktəb o'quvchilarining jamoaviy o'zaro ta'siri tajribasini ma'lum bir jihatda boyitadi, bu birgalikda katta tarbiyaviy samara beradi. [1]

O'quvchilarning sindf dan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyoohlar klubи va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlар o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o'quvchilarning sindf dan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va shu kabilar bilan mustaqil shug'ullanishi)ni ko'rsatish mumkin.

Ona tilidan sindf dan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Uning ta'limiy ahamiyati-bu jarayonda o'quvchilar qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Tarbiyaviy ahamiyati esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik va tezkorlik, hozirjavoblik singari fazilarni shakllantirish, mustaqil fikrlash sindf dan tashqari tarbiyaviy ishlar turli xil faoliyat turlarining kombinatsiyasi bo'lib, bolaga keng ko'lamlı tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogik nazariyaga ko'ra, "sinfdan tashqari tarbiyaviy ish - bu o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqari vaqtida maktab o'quvchilari uchun turli xil faoliyat turlarini tashkil etish, bolaning shaxsini ijtimoiylashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash"., ijobiy faoliyat ko'rsatish, nutq odobini tarbiyalash kabi ijodiy ishlarda o'z ifodasini topadi. Ona tilidan sindf dan tashqari ishlarni o'tkazilish davriga qarab ikki turga bo'linadi:

Doimiy	Mavsumiy
To'garak mashg'ulotlari	Turli bayramlarda o'tkaziladigan tadbirlar

**To'garak-sindf dan tashqari ishlarning asosiy turi bo'lib, u, odatda, o'quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko'radi.** To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriy, ammo uning mashg'ulotlarida ishtirok etish majburiy hisoblanadi. Ona tili

to'garagining a'zolari 12-15 o'quvchidan oshmasligi lozim. Ular parallel sinflardan iborat bo'lsa, mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar maktabda parallel sinflar bo'lmasa, to'garak a'zolari bitta sinfdan iborat bo'lishi ham mumkin. Ona tili to'garaklari har xil nomlar bilan nomlanadi. Masalan, "Tilshunoslar to'garagi", "Yosh tilshunoslar", "O'zbek tili – davlat tili", "Til-millat g'ururi" v.h.

Avvalo, to'garak rahbari tomonidan to'garakning maqsadi, vazifalari, olib boriladigan faoliyat belgilab olinadi va to'garakning yillik hamda kalendar ish rejasi tuziladi. To'garak a'zolarining ro'yxati (ko'ngillilar asosida) shakllantirilgach ular to'garak ishining umumiyo mohiyati bilan tanishtiriladi, har bir a'zoning to'garakdagi vazifasi belgilab olinadi. Odatda, to'garak mashg'ulotlari bir haftada bir marta o'tkaziladiki, albatta, bunda to'garak o'quvchilarning qiziqishlari inobatga olinishi zarur.

O'quvchilarning to'garak mashg'ulotlaridagi faoliyatları ona tili dars mavzularini takrorlamasligi, ammo uni to'ldirib, takomillashtirib borishi kerak.

Dars tuzilishi va qurilishi jihatidan muayyan qoliplar asosida tashkil etilsa, to'garak mashg'ulotlarida bunday qat'iylik bo'lmaydi. O'quvchi to'garak mashg'ulotida darsda olgan bilimlarga tayangan holda hayotiy tajribalarini ishga soladi. Krossvordlar tuzish va yechish, insho tanlovlarini o'tkazish, ma'lum bir she'riy asar yoki hikoyaning til xususiyatlari ustida ishslash singari ishlar ham to'garak mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Zero, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning ona tili o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish vositasidir. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar sirasiga *savol-javoblar, uchrashuvlar, mushoiralar, so'zlar olamiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, olimpiadalar, bilimlar bellashuvi, konferensiylar tashkil etish, albom-bayozlar tayyorlash va devoriy gazeta chiqarish kabilarni kiritish ham kiritish mumkin.*

**Savol-javob kechasida** o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik ancha oldin boshlanadi. O'quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Masalan, "Yozuv qanday kelib chiqqan?", "Kirill yozuvini ham o'rganish zarurmi?", "Ko'zi ojizlar qanday yozadi va o'qiydi?", "Kelajakda tillar qo'shilib ketishi mumkinmi?" kabi. Muayyan vaqt o'tgach, to'garak a'zolari savollarni yig'ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil etadilar.

**Ijodiy uchrashuvlar** juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga ona tili darsliklarining mualliflari, mashhur tilshunos-olimlar, hukumat mukofotiga sazovor bo'lgan ona tili o'qituvchilari taklif etilishi mumkin. Ayniqsa, shular orasida maktabning sobiq talabalari bo'lsa, ularni taklif etish, ular bilan suhbatlashish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.


**Mushoira kechalarining** mavzusi ham kamida bir oy oldin e'lon qilinadi. Bellashadigan guruuhlar o'zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko'radi. Mushoira, odatda, guruhlarning o'zaro tabrigi bilan boshlanadi. Asosiy qism savol-javobdan va she'rxonlikdan iborat bo'ladi. Savollar o'qituvchi yoki bellashayotgan guruuhlar tomonidan tuzilishi mumkin. Hakamlar tabrik so'zi va har bir savol-javobga tegishli baho qo'yishadi hamda ular e'lon qilib borishadi. Mushoira savollari ona tilining muayyan bir bo'limi yoki bir necha kichik mavzularni o'z ichiga olishi mumkin.

**So'zlar olamiga sayohat.** Bu tadbir o'quvchilarning so'z zahirasini oshirishga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi. O'quvchilar darsdan keyingi bo'sh vaqtlarida so'zlarning etimologiyasi,

ularning leksik ma'nosi olamiga sayohat qilishadi. Tilimizdagи so'zlar juda katta xazina bo'lganligi sababli o'qituvchi qaysi uyadagi so'zlar (har bir tadbirda taxminan 50-60 so'z) yuzasidan o'quvchilarning tayyorgarlik ko'rishlari lozimligini 10-15 kun oldin ma'lum qiladi va qanday manbalardan foydalanish lozimligini bildiradi.

Navro'z milliy bayramiga bag'ishlangan so'zlar olamiga sayohat

O'yinida o'quvchi quyidagilarni misol qilishi mumkin:



**Ko'rik-tanlovlар** ham sinfdan tashqari ishlarning muhim turlaridan biridir. Bu tadbir vaqtiga bilan o'tkaziladigan tadbir bo'lib, uni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Bunday tanlovlar o'quvchi yoshlar ongiga milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatni oshirishda katta xizmat qiladi.

8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni”ning nishonlanishi o’quvchi yoshlarda onaga, singilga, ayollarga nisbatan hurmat ruhini oshiradi. Bunda boshlang’ich sinf o’quvchilariga “Tabriknoma tayyorlash” tanlovi o’tkazilsa, 5-, 6-, 7-, 8-sinflarga “Onalar oyog’i ostida jannat”, “Eng yaxshi yozilgan tabrik”, “Onajonim-mehribonim” singari mavzularni tanlashi mumkin. 9-, 10-, 11-sinflarda esa erkin mavzuda yozilgan insholar, ramziy insholar, ilmiy matnlar bo’yicha shunday tanlovlardan o’tkazilsa, o’quvchilar uchun foydali bo’ladi.

**Olimpiadalar** ham sinfdan tashqari ishlarning bir turi bo'lib, unga ishtirok etish ixtiyoriydir. Bu tadbirga kuch sinashishni istagan barcha o'quvchilar ishtirok etishlari mumkin. Olimpiada goliblari maktab ma'muriyatining tashabbusi bilan rag'batlantiriladi. Ona tili olimpiadalari bir o'quv yilida bir marta o,,tkaziladigan tadbir sanaladi Uzoq yillardan beri bu tadbirning birinchi bosqichi maktabda, ikkinchi bosqichi tuman (shahar)da, uchinchi bosqichi viloyatda va to,,rtinchi bosqichi Respublikada o,,tkazilib kelinmoqda. Olimpiadalar hamisha iqtidorli o,,quvchilarning diqqat markazida bo'ladi.

**Bilimlar bellashuvi**, odatda, 5-, 6-, 7-, 8-sinflar o'rtasida tashkil etiladi va sinfda, sinflararo, maktablararo tashkil etiladi. Tom ma'noda, bu musobaqa quyi sinf o,,quvchilarini olimpiadaga tayyorlab boradi.

**Konferensiyalar** ancha murakkab tadbirlardan biri bo'lib u, asosan, 8-, 9-, 10-, 11-sinflarda o'tkaziladi. Bunda ham asosiy bosh mavzu oldindan o'quvchilarga ma'lum qilinadi: bu mavzu kichik mavzularga ajratilib, uning har biri bo'yicha kimlar tayyorgarlik ko'rishi lozimligi belgilanadi. Bitta mavzu bo'yicha bir necha o'quvchi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, ulardan biri asosiy ma'ruzachi, qolganlari qo'shimcha ma'ruzachilar sifatida ishtirok etadilar. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning yuqorida tilga olingan barcha shakllarini tashkil etishda to'garak a'zolari faol ishtirok etadilar.

Xullas, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar alohida-alohida tadbirlar sanalsa-da, ammo ular o'zaro bog'langan, biri ikkinchisini to'ldiradigan faoliyat turlari hisoblanadi. To'garak mashg'ulotlari va sinfdan tashqari ishlarning barcha turlaridan unumli foydalanilgan taqdirdagina ona tili ta'limining samaradorligiga umid bog'lash mumkin. [2,3,4]

**Ona tili bayrami.** Sinf, maktab, ba'zan tuman, shahar yoki viloyat miqyosida til bayramini tashkil etish ham ona tilidan o'tkaziladigan eng yaxshi darsdan tashqari tadbir hisoblanadi. Ayniqsa, har yilning 21-oktabr kuni "O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun" sifatida nishonlanishi shu sana bilan bog'liq badiiy kechalar o'tkazilishida muntazamlikni ta'minladi. Quyida maktabda o'tkaziladigan "Muqaddasim, munavvarim – ona tilim " ssenariysini namuna sifatida keltiramiz:

### "Muqaddasim, munavvarim – ona tilim "

Zal bayramona bezatilgan. Gullar, sharlar ilingan. Sahna devoriga "Ona tilim, buyuklikda eng baland tog'san!", "Muqaddasim, munavvarim – ona tilim ", "Til – ma'naviyat xazinasi" shiorlari ilinadi.

Sahna to'riga Alisher Navoiy rasmi va "Agar til olmos bo'lsa, so'z uning oltin sopiga qadalgan injudir" so'zları yozilgan taxta osiladi.

Til haqidagi fikrlar aks ettirilgan gazeta va jurnallar, kitoblar qo'yilgan stend. "Cho'li iroq" yangrab turadi.

- 2-b: Tarixni so'zlama menga, ey odam,  
Bitta chalib bergen "Cho'li iroq" ni  
Bitti chalib bergen, toki yana ham  
Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.  
1-b : Haddidan oshganga uni chalib ber,  
Do'stlar diyordini g'animat bilmay,  
Sarobga shoshganga uni chalib ber!  
Chalib ber, chalib ber, andisha qilmay.  
O'tmishni so'zlama, o'git kerakmas,  
Shu kuyni bir marta chalib bersang bas.

Davrani ochish.

1-b: Assalomu alaykum, barkamol avlodni tarbiyalashdek ezgu ishga butun hayotini baxshida etgan fidoyi va oliyhimmat ustozlar! Hurmatli o'qituvchi va o'quvchilar!

2-b: Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar! Aziz davramiz qatnashchilar!

1-b: Sharqona odatimizga ko'ra, eng avvalo, xush kelibsiz!

2-b: Ey xalqidek qoyabardosh bahodir til,

Ey boshidan mashaqqatlar kechirgan til.

- 1-b: Ey daryodek sermavj, zilol, injuga boy,  
Yuz buloqdan qonib suvlar ichirgan til.

- 1-2-b: Alpsan, erksan, yorug'liksan, ham bilimsan,  
Ezgu o'yni ezgu so'zga ko'chirgan til.

1-b: Til inson madaniyatining ifodasidir. Har bir millatning o'zligi, uning tili va adabiyotida namoyon bo'ladi. Til umr bo'yi o'rganiladigan, sayqal bergan sari ochilib , yashnaydigan san'at durdonasi.

2-b: Til aloqa vositasi, ekan, so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozidir.

- 1-b: O'tmishi bor tarixga boy,  
Navoiydan olgan chiroy.  
Orzu havas bunda talay,  
Ona tilim – a'lo tilim.

- 2-b: Yana qayta tug'ilgansan,  
Baxt – iqbolga yo'g'rilmansan  
O'lkamizga nur bo'lgansan  
Ona tilim – a'lo tilim.

1-b: O'zbek tili uzoq tarixga ega. Uning ildizlari necha ming yilliklar qariga borib taqaladi. Qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili, hozirgi o'zbek adabiy tili deb nomlangan davralarga bo'lib o'rganilarigan tilimiz oz bagriga minglab allomalarini, ular yaratgan durdona asarlarni jamlagan.

2-b: Darhaqiqat, ne - ne allomalarimiz tilimizning qudrati va ezguligidan so'zlaydi. Ona tilimizning buyukligi , serqirra va serjiloligi, sirli jozibasi bizni o'ziga maftun etadi.

- 1-b: Kelib-ketdi necha dunyolar,  
Keldi hayot yig'ladi o'lim  
Sen deb jafo chekdi bobolar  
Ular ketdi – sen qolding tilim.

- 2-b: Kultegin, Bilga xoqon, To'nyuquq kabi  
Shuhrat bog'idagi ulkan daraxtlar.  
O'rxun xatlariga boqing, ajoyib,  
Xalqim tarixidan sado bu xatlar.

1-b: 1989-yil 21-oktabr "Ozbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida " gi Qonuni qabul qilindi. Ozbek tiliga "Davlat tili" maqomi berildi.

2-b: O'zbek tili va adabiyotining so'nmas dahosi, buyuk shoir, olim va davlat arbobi Mir Alisher Navoiy hazratlari ona tilimizning qudratini shunchalik ko'klarga ko'tardiki, bu tilning shuhrati butun Sharq mamalakatlari yoyildi. Buyuk bobokalonimiz o'zbek tilining eng boy va go'zal til ekanligini , bu tilda ajoyib va mukammal asarlar yaratish mumkin ekanligini isbotlab berdi.

- 1-b: Shuning uchun buyuk Navoiyning o'zlari:  
Olibmen taxti farmonimga oson,

Cherik tortmay Xitudin to Xuroson ,– ya'ni, Xitoydan to Xurosongacha bo'lган о'лкаларни qo'shinsiz egalladim, deb yozgan bo'lsalar, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov:

Temur tig'i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher, - deb yozadi.

2-b :  
Sen mangusan, baqosan,  
Men esam o'tkinchi zot.

Sen hamisha bahorsan,  
Men – lahzalik xotiro.  
Ona tilim, jon tilim,  
Sensiz men soladurman  
Devona boladurman.  
Tuqqanimga yettiyot  
Begona boladurman.

1-b :  
-Men o'zbekman, istasangiz shu,  
O'zimniki qilgum dunyoni.  
Tilim , elim, saodatim-la,  
Lol etaman yer-u samoni.

1-b : Til bani Odam uchun beminnat dastyor, hokisor xizmatkor ekani bilan ham qadrlidir. Dunyoda malum-u mashhur har til borki, unda xalqining tarixi, buguni va ertasi mujassam. Onadek motabar ozbek tili ham ezoz-u ehtiromga arzigelikdir. Bugungi hurlik zamonida, tilimizning qonuniy himoyasi qayta tiklangan zamonda buyuk tilimiz ozining butun boy basti bilan keng quloch yoymoqda.

2-b : So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy inson fazilatlaridan biri hisoblanmish – nutq madaniyatiga katta e'tibor bergen. Inson odobi, axloqi, dunyoqarashini til madaniyatiz tasavvur qila olmaydi.

1-b : “Dono topib gapirar” – deganlaridek, o'z fikrini ma'noli, kishiga og'ir botmaydigan so'zlar bilan ifodalash – ham donolik, ham odoblilik namunasidir – deydi.

1-b:  
Bir sehrli tillo sandiq- ayoni bor,  
Durin sochsang, na cheki, na poyoni bor.  
Ham tigi bor, ham tugi bor, tugyoni bor,  
Muqaddasim, munavarim, ona tilim!

2-b:  
Moh siymosi bolmasa, mohitobon nadur?  
Aytar sozi bolmasa gar, zabun nadur,  
Ona yerga ona tilsiz zamon nadur,  
Muqaddasim, munavarim, ona tilim!

1-b: Inson shunday oliy bir mavjudotki, unga aql-idrok, fahm-u farosat bilan birga so'zlay olish qobilyati ham berilgan.

2-b: Ha, so'zning qudrati buyuk. U butun jahonni qo'lida tutmoqqa qodir. So'zdan qimmatiroq, undan ulug'roq kuch yoq dunyoda.

1-b: Bu borada birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbuslari bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilishi diqqatga sazovor bo'ldi.

1-2-b: Zero, tilimiz ham, elimiz ham muqaddasdir .  
Bunday tadbir ssenariylari o'quvchi-yoshlar ongiga tilimizga bo'lgan hurmatni oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari olib borilgan barcha tadbir-u tanlovlarda faol ishtirok etgan o'quvchilar bo'ladi. Ularning faoliyatini rag'batlantirish, Faxriy yorliqlar bilan taqdirlash o'quvchi uchun ahamiyati katta. Bu qism albattabo'lishi kerak. Ko'pgina bolalar uchun hayotiy tajribani o'zlashtirish jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Bola tashqi va ichki to'siqlarni yengib o'tish, irodali rag'batlantirish, o'zini o'zi belgilash va o'zini tuta bilish sharoitidagina ijtimoiy qimmatli shaxsga aylanadi . Agar rag'batlantirish bolalar faoliyatiga kiritilgan bo'lsa, bu bolalarda o'z irodasi, o'zini yengish qobiliyati, dangasaligini yo'qotish, qiziquvchan xislatini uyg'otadi.

## REFERENCES

1. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O'zbek tilini o'qitish metodikasi.-Buxoro:Durdona,2021.  
<http://library.ziyonet.uz/ru/book119112>
2. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.-Toshkent:Iqtisod-moliya,2009.
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. [wwwilm.uz](http://wwwilm.uz)